Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensiyalari” mavzusidagi respublika il...

**Foydalanililgan adabiyotlar**

1.Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi” nomli kitobi.

2.Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan "Raqamli iqtisodiyot istiqbollari" hisoboti.

3.Jahon bankining "Raqamli iqtisodiyot va transchegaraviy savdo: muammolar va imkoniyatlar" hisoboti.

4.Lina Dencik va Arne Xintz tomonidan "Raqamli ijtimoiy farovonlik: nazariyalar, siyosat va amaliyot

5."Raqamli ijtimoiy fuqarolik: tadqiqot" muallifi Juli E. Kuper.

6.Investopedia tomonidan "Raqamli iqtisodiyot" maqolasi: https://www.investopedia.com/terms/d/digital-economy.asp

# AHOLINING OMONATLARINI KAFOLATLASH FONDI VA UNI FAOLIYATI

***Umarova Nilufar Sherzod qizi***
*TDIU Andijon fakulteti*
*“Bank ishi va audit” ta’lim yo‘nalishi, 2-kurs talabasi*
***Qurbonov Jasurbek Pozilovich***
*TDIU Andijon fakulteti*
*“Mutaxasislik fanlari” kafedrasi mudiri, PhD*

***Annotatsiya:****Ushbu maqolada omonatlar nima? Depozitlar nima? Kabi savollarga javob topilgan va omonatlarni kafolatlash fondi, fondning faoliyati, mablag’larni moliyaviy operatsiyalarda ishlatishi haqida ma’lumot berib o’tilgan.*

***Kali so’zlar:*** *omonat, deposit, moliyaviy sektor, risk, banknot, resurs, xo’jalik subyekt, omonatchi, mayda omonat, pul-kredit, kafolatlash tizimi.*

Banklardagi omonatlarni kafolatlash haqida so’z yuritishdan oldin omonat(depozit) nima ekanligi haqida biroz to’xtalsak… Omonat-mijozning mablag‘larini kirim qilish miqdori, ularni saqlash muddati va maqsadi omonatning turi shartlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. **Depozit** (lot. depositum -omonat, asrab qo‘yilgan)-

1) bankka qo‘yilgan omonatlar. Bunday Depozitlarning muddatli (muayyan muddatdan so‘ng qaytarib beriladigan) va talab qilib olinadigan (omonat egasining birinchi talabi bilan beriladigan) turlari bor. Kredit muassasasi omonatchiga Depozitni olish huquqini beruvchi hamda mazkur pul mablag‘ining bankka deponent qilinganini tasdiqlovchi yozma guvohnoma - Depozit sertifikati beradi;

2) bank daftaridagi mijozlarning bankka bo‘lgan muayyan talablarini ifodalovchi yoki tasdiklovchi yozuvlar;

3) kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan qimmatli qog‘ozlar (aksiya va obligatsiyalar) va pul vositalari;

4) turli muassasalarga talab qilinadigan to‘lovlarni ta’minlash uchun oldindan o‘tkaziladigan badallar.



Published: 17.05.2024

**Cite this article:** Umarova Nilufar Sherzod qizi, Qurbonov Jasurbek Pozilovich (2024). Aholining omonatlarini kafolatlash fondi va uni faoliyati. Emro Science and Education, 1(3). https://journal.emro.uz/public/maqola/117

*© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

Banklardagi omonatlarni kafolatlash har bir mamlakatning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o’ziga xos ko’rinishda tashkil etiladi. Respublikamizda ham iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida omonatlarni himoyalash tizimiga alohida e’tibror qaratilmoqda. Moliyaviy sektor rolining oshishi, aholining bankdagi omonatlari soni va summasining o’sishi, moliyaviy bozorda bank operatsiyalarining ko’payishi, milliy valyuta barqarorligining ta’minlanishi moliyaviy tizimni mustahkamlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqishni zaruriyatini yuzaga keltiradi. Shu maqsadda, Respublika Oliy Majlisining 2002-yil aprel oyidagi 8-sessiyasida “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi va fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tashkil etildi hamda respublikamizda aholining banklardagi omonatlarini kafolatlash tizimi yuzaga keldi. Bu tadbirlar aholining huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi ilg’or bank faoliyatida risk bo’lishi va mablag’ida yo’qotish ehtimoli borligidan dalolat beradi. Pul mablag‘larni omonatga qo‘yish bo‘yicha banklar takliflarini ko‘rib chiqayotganda, har kimda “mening pul mablag‘larim qanchalik himoyalanadi?”, “bank bankrot bo‘lgan taqdirda omonatni qaytarish muddati qanday?” kabi savollar paydo bo‘ladi.Shuni bilish kerakki, davlat tomonidan omonatlarni kafolatlash tizimi yaratilgan bo‘lib, ushbu tizim muayyan vaziyatlar ro‘y berganda fuqarolarga pul mablag‘larni qaytarib berishni ta'minlaydi.Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlashda aholi omonatlari alohida o’rin egallaydi.

Tijorat banklari boshqa xo’jalik sub’yektlaridan farqli ravishda pul bilan, asosan, chetdan jalb qilingan mablag’lar bilan ish olib boradi. Chetdan jalb qilingan mablag’lar tarkibida fuqorolar mablag’lari ham salmoqli o’rin egallaydi. Agar banklarda aholi omonatlari uchun etarli kafolat bo’lmasa, inqiroz sharoitida bank omonatlari katta zarar ko’rishlari mumkin. Barqaror bo’lmagan iqtisodiyot, ishlab chiqarish sust rivojlangan sharoitda aholining o’z mablag’larini bankka ishonmasligi iqtisodiyotda pul aylanishini sustlashtiradi. Natijada aholining bankka bo’lgan ishonchi yo’qoladi. Shuning uchun aholining banklardagi omonatlarini kafolatlash mamlakatda pul-kredit siyosatini oqilona olib borish, aholining banklarda bo’lgan ishonchini oshirishda hal qiluvchi rol o’ynaydi. Banklarning bosh funktsiyalaridan biri, aholini qo’lidagi bo’sh pul mablag’larni o’ziga jalb qilib, bu yo’l bilan muomaladagi naqd pul aylanishini tezlashtirishga yordam berishdir. Shuning uchun ham banklarga omonatchilarning ishonchi zarur. Bunga barcha sektor o’z vaqtida moliyalashtirilishi, tadbirkorlik va ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish pirovard natijada ish haqining o’z vaqtida berilishini ta’minlash orqali erishish mumkin. Omonatchilarni bank tizimiga nisbatan ishonchini oshiruvchi tadbirlardan yana biri omonatlarni kafolatlash tizimini yaratishdir. Bank omonatlarini kafolatlashining asosiy maqsadi - bank innqirozga yuz tutgan vaqtda mayda omonatchilar manfaatini himoyalash hisoblanadi. Bu tizim amal qilganda, bank tizimi inqirozga uchraganda aholi o’rtasida omonatlarni yoppasiga olib ketish va xalqda vahima paydo bo’lish hollariga barham beriladi.

Iqtisodiyotda omonatlarni kafolatlash tizimlari zarur bo’lib, ular quyidagilarni ta’minlaydilar:

1. Mayda omonatchilarning manfaatlarini himoyalash.
2. Moliyaviy tashkilotlar faoliyat ko’rsatishiga aniq qoidalar kiritish va ularning ish faoliyatini to’xtatishda aniq qoidalardan foydalanishni ta’minlash.
3. Normal bank faoliyatini barqarorlashtirib, moliyaviy tizimga ko’maklashuvchi mexanizmini yaratishini ta’minlash.

Dunyoning barcha mamlakatlarida, jumladan, bozor iqtisodiyotiga o’tuvchi mamlakatlarda ham omonatlarni himoyalash tizimi qonuniy asosda mayda omonatlarni himoyalashga qaratilgan. Bunda kafolatlanuvchi (sug’urtalanuvchi) omonatning maksimal miqdori Qonun bilan belgilanadi. Albatta, mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga qarab, «mayda omonat» tushunchasi hamma mamlakatlarda har xil qabul qilinadi. Mayda omonatchilarning manfaati ustuvorligining bir necha sabablari bor:

milliy jamg’armalarning katta qismi aynan mayda omonatlarga to’g’ri keladi. Buni O’zbekiston banklari misolida ham ko’rishimiz mumkin:

**1-jadval**

**Tijorat banklarida aholi omonatlarining miqdoriy strukturasi**

| **250 ming so’mgacha omonatlar** | | **250 ming o’mdan 600 ming so’mgacha** | | **600 ming so’mdan yuqori** | |
|---|---|---|---|---|---|
| Omonatchi soni | summa ming so’m | Omonatchi soni | summa ming so’m | Omonatchi soni | Summa ming so’m |
| 790692 | 13968 | 13907 | 5939 | 57427 | 59819 |

Jadvaldan ko’rib turganimizdek, omonatchilarning asosiy qismi mayda omonatchilar hisoblanadi. 790 mingdan ortiq omonatchining tijorat banklariga qo’ygan omonatlarining summasi 250 ming so’mgacha bo’lib, qolgan barcha omonatchilarning soni 70 mingdan ortiq bo’lib, ularning omonatga qo’ygan pul mablag’lari 250 ming so’mdan ortiqni tashkil etadi.

**2-jadval**

**Tijorat banklarida aholi omonatlarining miqdoriy strukturasi**

| **250 ming so’mgacha omonatlar** | | **250 ming so’mdan 600ming so’mgacha** | | **600 ming so’mdan yuqori** | | **Jami omonatlar bo’yicha** | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Omonat-chi soni | Ulushi % | Omonat-chi soni | Ulushi % | Omonatchi soni | Ulushi % | Omonatchi-lar soni | Ulushi % |
| 790692 | 91,8 | 13907 | 1,6 | 57427 | 6,6 | 861166 | 100,0 |

Respublikamizdagi barcha tijorat banklaridagi aholi omonatchilarining 790692 tasi 250 ming so’mgacha bo’lgan omonatlar bo’lib, ular 13968 ming so’mni tashkil etadi. Omonatchilarning 13907 tasi 250 ming so’mdan 600 ming so’mgacha pul qo’ygan omonatchilardir va nihoyat 600 ming so’mdan yuqori omonatlar 57427ta

omonatchi tomonidan qo’yilgan, ya’ni, agar «omonatchilar soni» ko’rsatkichini birlamchi qilib, uni tahlil qilsak jadvaldagi ulushlar asosida omonatlarning quyidagi sifat ko’rsatkichlariga ega bo’lamiz: Yuqoridagi jadvaldan shuni ko’rish mumkinki, 250 ming so’mgacha bo’lgan omonatlar jami omonatchilarning soni ulushi jami omonatchilar ichida 91,8%i bo’lib yuqori ko’rsatkichga ega. 250 mingdan yuqori bo’lgan omonatlar 8,2%ni tashkil etadi. Demak, aynan, shu mayda omonatlar kafolatlanishga muhtojdir. Bundan omonatlar kafolatlanishining 2-sababi kelib chiqadi, ya’ni: aynan mayda omonatchilar sonining ko’pligi bank inqirozlari davrida boshqarib bo’lmaydigan noroziliklar, janjallar ko’tarilishiga olib keladi. Uchinchi sabab esa, omonatchilarni himoyalash, odatda, ko’p moliyaviy resurslar talab qiladi, asosan byudjet mablag’lari xarajatlarini, bu esa davlatni kafolatlanuvchi omonatlarning miqdorini chegaralashga majbur etadi. Shu bilan birga, kafolatlash tizimi qandaydir ma’noda moliyaviy vositachilikka va davlat byudjetini moliyalashtirishga asos yaratishda yordam beradi. Banklarning bankrotga uchraganligi sababli jamiyat yo’qotishlari hajmi juda katta va u nafaqat iqtisodiy balki ijtimoiy asoratlar qoldiradi. Jahon tajribasiga murojaat qilinsa, bank tizimiga ishonchni oshirish muammosini hal qilish yo’llaridan biri omonatlarni kafolatlash tizimini o’sha mamlakatning iqtisodiyotiga mos darajada shakllantirishdir. Bu erda omonatlarni kafolatlash tizimining birinchi sharti omonatlarni kafolatlash tizimining huquqiy bazasini yaratish, ya’ni aholini banklarga nisbatan ishonchini mustahkamlovchi Qonunlar qabul qilish va me’yoriy hujjatlar ishlab chiqishdir. Omonatlarni kafolatlash tizimini yaratishda amal qilinishi kerak bo’lgan ikkinchi shart bu banklarga nisbatan nazoratni kuchaytirish, banklar faoliyatiga salbiy ta’sir etuvchi g’oyatda riskli operatsiyalarni bajarishiga yo’l qo’ymaslik hisoblanadi. Hozirgi kunda respublikamizda omonatlarni kafolatlash tizimi endigina shakllanmoqda. Lekin ko’p mamlakatlarda bank omonatlarini himoyalash tizimi mavjud va u bank tizimining ajralmas qismi xisoblanadi. Har bir davlatda bunday tizimning shakllanish va rivojlanishi o’ziga xos xususiyatga ega.

**Xulosa.** Aholining omonatlarini kafolatlash fondi, aholi tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy omonatlarni muhofaza qilish uchun yaratilgan institutlar, mamlakatlar o’rtasida kelishilgan shartlar asosida harakat topadi. Bu tashkilotlar, omonatlarni kafolatlash, kafolat turlari va omonatlarni qabul qilishni amalga oshirish bilan shug’ullanadi. Ular aholining moliyaviy mablag’larini omonatlar orqali investitsiya qilib, moliyaning omonatlarga kafolatlash orqali omonatlarni qayta ishlash va moliyaning ijro etilishi, qarzni ajratish, dastlabki omil qilingan mablag’lar oqrali pul-kredit, moliya tizimida barqarorlikni ta’minlash hisoblanadi.

## Fodalanilgan adabiyotlar:

1. «Fuqarolarni banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to’g’risidagi» O’zbekiston Respublikasi Qonuni, 2002 yil 5 aprel.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada isloh kilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi Farmoni, 2005 yil 15 aprel.
3. https://stat.uz/uz/
4. https://uz.wikipedia.org/
5. https://finlit.uz/oz/

# V SHO‘BA - HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH DASTURLARIGA KIRITILGAN LOYIHALARNI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH MUAMMOLARI VA UNI BARTARAF ETISH YO‘NALISHLARI

## KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION LOYIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH

***Numonjonova Nargiza Ashuraliyevna***
*Andijon mashinasozlik instituti tayanch doktoranti*
*nomonjonovanargiza7@gmail.com*.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda, har qanday kichik korxonaning yoki firmaning barqaror rivojlanishi hamda yuqori iqtisodiy foydaga erishayotganligi uning investitsiya samaradorligi bilan bog‘liq ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Kichik biznes va xususiy tadbipkoplik sohasiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalap hajmining optishi, o‘z navbatida sohada ishlab chiqapish hajmining optishiga va aholi bandligini ta’minlashga, uning bapqapop rivojlanishi hamda tapkibiy o‘zgapishlapning jadallashuviga sabab bo‘ladi. Buning provard natijasi mamlakatda iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz” deya ta’kidlagan [1].

Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda iqtisodiyotda investitsiyalarning o‘rni, ulardan foydalanish, samaradorligini oshirish, unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganish, taxlil qilish va ko‘rsatkichlarini baholash yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar alohida ahamiyatlidir. Kichik biznes va xususiy tadbipkoplikda ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan investitsiyalarning samaradorligini ijtimoiy-iqtisodiy tarafdan talqin qilish muhim hisoblanadi. Chunki, har qanday iqtisodiy jarayonning provard natijasi, ijtioiy samaradorlikka erishish bilan bog‘liqdir. Ya’ni, har qanday iqtisodiy samaradorlik negizida ijtimoiy naflik bo‘lishi zarur. Shu bois ilmiy tadqiqotlarda bu masalaga alohida e’tibor qaratiladi.

Bugungi kunda kichik biznes sohasida ham investitsiyaga bo‘lgan talab, investitsiyaga yunaltiriladigan mablag‘larning yetishmasligi investitsiya resurslaridan samarali foydalanishni taqazo etadi. Chunki qo‘yilgan kapital mablag‘idan samarali foydalanish natijasida ko‘proq foyda olish imoniyatidan kengroq foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shu o‘rinda, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda hamda barqarorligi ta’minlashda rivojlangan davlatlar iqtisodiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, investitsion loyihalarni boshqarish va baholashda ushbu loyihani taklif etuvchi mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy tahlili zaruriy komponent hisoblanadi. Milliy



Published 15.11.2026 · https://journal.emro.uz/public/maqola/117 